

SURXONDARYO VILOYATIDA EKOLOGIK TURIZMNI RIVOJLANTIRISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Soatov Yusuf Xo'jayor o'g'li

Renessans ta'lif universiteti katta o'qituvchisi.

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada Surxondaryo viloyatida ekoturizmni rivojlantirishdagi imkoniyatlari va ahamiyatiga e'tibor qaratilgan. Surxondaryo viloyati o'zining boy madaniy tarixi evaziga mamlakatimizdagi yetakchi turistik markaz hisoblanadi. Bu viloyatda turizmning tarixiy, arxitektura, arxeologiya va ziyorat turizmi kabi turlari yaxshi rivojlangan. Shu sababli bu maqolada viloyatda ekoturizmni rivojlantirishga sabab bo'luvchi obyektlari va ekologik markazining imkoniyatlari va uning kelajakdagi ahamiyati xaqida fikr-mulohazalar bildirilgan.

Kalit so'zlar: Ekomarkaz, ekologiya, parvarishxona, qo'riqxona, ekoturizm, turizm, fauna, flora, tabiat, cho'l, arxitektura, ziyorat.

DEVELOPMENT OF ECOLOGICAL TOURISM IN SURKHANDARYA REGION DISTINCTIVE FEATURES

Soatov Yusuf

Renaissance education university senior lecturer

ABSTRACT

This article focuses on the possibilities and importance of developing ecotourism in Surkhandarya region. Surkhandarya region is the leading tourist center in our country in exchange for its rich cultural history. Tourism in the province is well developed, including historical, architectural, archaeological, and pilgrimage tourism. This article therefore provides feedback on the potential of its facilities and Ecological Center and its future significance, which are responsible for the development of ecotourism in the province.

Keywords: Ecomark, ecology, carehouse, Reserve, ecotourism, tourism, fauna, flora, Nature, desert, architecture, pilgrimage.

KIRISH

XX asrning 60-yillariga kelib jaxon iqtisodiyotida sanoat tarmoqlarini jadallik bilan rivojlanib borishi oqibatida yer yuzidagi o'simlik va hayvonot dunyosidagi ayrim

turlar yo‘qolib keta boshladi. Ushbu davr butun turizm sanoatini atrof-muhitga do‘stona munosabatda bo‘luvchi – ekoturist deb ataluvchi yangi turdag'i sayohatchilar toifasining yuzaga kelishi bilan ifodalanadi [1; 248-b.]. Respublikamiz tabiatini asrab-avaylash, noyob hayvonlar hamda o‘simpliklar, shuningdek, qushlarning kamayib borayotgan turlarini saqlab qolish, shu asosda joylarda ekoturizmni rivojlantirish borasida qator islohotlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, “Hisor”, “Surxon”, “Kitob”, “Zomin” va boshqa shu kabi qo‘riqxonalarda mahalliy hamda xorijlik sayyoohlarga mamlakatimiz tabiatining o‘ziga xos jihatlari ko‘rsatib borilmoqda. Aynan biz tadqiq etmoqchi bo‘lgan Surxondaryo viloyatida joylashgan ekologik markazi ham o‘zining fauna va flora dunyosi bilan ekoturizm bilan shug‘ullanuvchi xorijlik sayyoohlarni e’tiborini tortishi bilan ahamiyatlidir.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Ekoturizmning ilmiy-nazariy masalalari bo‘yicha O‘zbekiston va xorij mamlakatlaridagi geograf va iqtisodchi olimlar qator tadqiqot ishlarini olib borganlar. Ekoturizm haqidagi manbalar ilk bor XX asrning oxiri XXI asrning boshlarida xorijlik olimlar R.Davidov, A.V.Drozdov, V.V.Xrabovchenko, T.V.Bochkaryova, L.I.Yegorenkov va A.Taksanovlarning asarlarida ko‘rib chiqilgan. O‘zbekistonda ekoturizmning ilmiy-nazariy asoslarini A.N.Nigmatov, N.T.Shamuratova, M.Xoshimov va B.X.Kamolovlar tomonidan o‘rganilgan. Jaxon turizm tashkiloti (JTT) ekologik turizmga qisqacha quyidagicha ta’rif bergan: “Ekologik turizm tabiat turizmining barcha shakllarini o‘z ichiga oladi, bunda turistlarning asosiy intilishlari tabiatni kuzatish va u bilan muloqotda bo‘lish hisoblanadi” (VTO. Texnicheskiy zadaniye, 2001). Sayyoohlarning ekoturizmga qiziqishi ularni tabiatni muhofaza qilish, uni asrab-avaylashga bo‘lgan munosabatini mustahkamlashga xizmat qiladi. “Ekoturizm-bu tabiatga yo‘naltirilgan turizm turi bo‘lib, o‘z ichiga ekologik ta’lim va ma’rifatni qamrab oluvchi hamda ekologik barqarorlik tamoyillari asosida amalga oshiriluvchi turizm shaklidir”[3]. Ekologik turizm turistik xizmatlarni amalga oshirishga ommaviy turizmga nisbatan ancha kam xarajat va kam moddiy resurslarni sarflashga asoslanadi, unda qimmatbaho mehmonxonalar va servis xizmatlari o‘rnini tabiatda dam olish, uy-mehmonxona va chodirlarda yashash kabi arzonga tushadigan xizmatlar egallaydi[2; 14-b.]. Huddi shunday turizm faoliyatini amalga oshirishni maqsad qilgan va litsenziyaga ega bo‘lgan ushbu turistik firma va tashkilotlarning asosiy faoliyat bilan ya’ni turmaxsulotni shakllantirib uni sotish bilan shug‘ullanadiganlari soni juda kamchilikni tashkil etadi. 2019 yilda 36 ta turistik firma litsenziyaga ega bo‘lsada, ularning 3 tasigina turistik faoliyatni amalga oshirgan, qolganlari statistika organlariga hisobot topshirmagan. “Ekoturizm o‘z ichiga 3 ta asosiy mezonlarni qamrab oladi: turistlarni jalb qiluvchi diqqatga sazovor obyektlar tabiiy bo‘ladi (masalan, flora, fauna, geologik xususiyatlar) va bunda madaniy muhit

xususiyatlari ahamiyat kasb etadi hamda asosiy e'tibor boriladigan mintaqadagi tabiiy resurslarga yumshoq ta'sir qilishga qaratiladi" [4; 792-816 b.]. Buxoro viloyati butun dunyoga o'zining tarixi, madaniyati, tarixiy-madaniy meros obyektlari bilan mashxur sanaladi. Biz tomonimizdan o'rganilayotgan mavzu aynan viloyati ekoturizmida fauna dunyosining ahamiyati va uning jozibadorligiga bag'ishlanadi. Ushbu maqolada absrakt-mantiqiy tahlil, induksiya va deduksiya, tizimli tahlil, ekspert taqqoslash usullaridan foydalanilgan. Soha olimlari tomonidan jahonda ekologik turizmni rivojlantirishning uslubiy asoslarini takomillashtirish yo'naliishlarini aniqlash, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, ekologik turizmning me'yoriy-huquqiy asoslarini ishlab chiqish va takomillashtirish bo'yicha qator ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Jumladan, i.f.n Ziyodulla To'rayev "Surxondaryo viloyatida turizm sohasini rivojlantirishning ustuvor yo'naliishlari" dissertatsiyasida, ekoturizm sayyoxlik bozorining 10-20 foizni qamrab olgan, o'sish sur'ati esa turizm industriyasining umumiyligi o'sish sur'atidan bir necha marotaba yuqori ekanligini alohida ta'kidlagan. Bu jarayonda turizmning atrof-muhitga ta'sirini aniqlash, tabiat va turizm o'rtaqidagi muvozanatni saqlash, ekoturizmni rivojlantirish modelini ishlab chiqish masalalariga alohida e'tibor qaratilmoqda. Bunda mamlakat milliy iqtisodiyotida ekoturizmning ulushi va samarasini aniqlash muhim masalalar qatoriga kiritilgan.

NATIJALAR

Geografik joylashuviga O'zbekistonni okean va dengizlardan uzoqda joylashganligi, tabiiy ochiq suv havzalari hajmining kichik ekanligi evaziga mamlakat asosan tog' va tog' oldi,adir mintaqalar, alohida muhofaza etiladigan tabiiy hududlar (AMETH)da ekoturizmni rivojlantiradi. O'zbekistonning alohida muhofaza etilayotgan xududlari tarkibida 8 ta davlat qo'riqxonasi mavjud bo'lib, ular jami 2164 km maydonni egallagan. Shuningdek, 2 ta milliy bog' va noyob turlarga kiruvchi hayvonlarni ko'paytirish Respublika "Jayron" ekomarkazi 6061 km maydonni ishg'ol etgan. Bularidan tashqari 9 ta davlat buyurtmaxonalari mavjud bo'lib, ular 12186 km maydonga ega. Muhofaza etiladigan tabiiy hududlarning umumiyligi maydoni 20520 km, yoki O'zbekiston xududining 5,2 % ini tashkil etadi [6]. Surxondaryo viloyatida ixtisoslashgan joylashtirish vositalarining moddiy-texnik asosini yangilash amalga oshirib kelinmoqda. Dam olish tashkilotlari va turistik bazalari o'tgan asrning 70-80-yillarida faoliyatini boshlagan bo'lib, ular turli tashkilotlar, hokimliklarga qarashli bo'lgan. Kasaba uyushmalariga qarashli bolalar yozgi oromgohlari, xususiy lashtirilgan turistik bazalarning aksariyatida moddiy-texnik baza yaroqsiz holga kelib qolganligi sababli faoliyatlarini to'xtatishgan ma'lumotlarining ko'rsatishicha faoliyat yuritayotgan ixtisoslashgan joylashtirish vositalari soni 2010 yilda 14 tani tashkil etgan bo'lib, 2017 yilda ularning soni 22 taga yetgan, biroq keyingi yillarda ularning orasida faoliyatini to'xtatganlar borligi sababli 2021 yilga kelib ularning soni 21 taga tushib

qolgan. Ixtisoslashtirilgan joylashtirish vositalari xizmatlari hajmi 2010 yildagi 0,2 mlrd so‘mdan 2015 yilda Omonxona balneologik shifoxonasi faoliyatini boshlagandan so‘ng 4,3 mlrd so‘mgacha, 2019 yilda “Xo‘jaipok” sanatoriy-sog‘lomlashtirish va dam olish majmuasi ishga tushirilishi xizmatlar hajmi 18,6 mlrd so‘mgacha oshishiga o‘z ta’sirini ko‘rsatgan, biroq pandemiya sababli 2020 yilda o‘tgan yilga nisbatan 37,6 foizga xizmatlar hajmi kamaygan bo‘lsa, 2021 yilga kelib 22 981,0 mln so‘mni tashkil etgan. Ixtisoslashgan joylashtirish vositalari orasida Termiz tumanidagi Jayronxona davolash sog‘lomlashtirish maskani, Uchqizil ko‘li bo‘yidagi Surxon marvaridi sanatoriylari asosan yer ostida olinadigan minerallarga to‘yingan shifobaxsh termal buloq suvlaridan foydalanib davolash amalga oshirilsa, Oltinsoy tumanidagi Xo‘jaipok ota sanatoriy-sog‘lomlashtirish va dam olish majmuasi Xo‘jaipok ziyoratgohida g‘ordan oqib chiqayotganoltingugurtli suvdan davolash maqsadida foydalaniladi. Boysun tumanida joylashgan «Omonxona» balneologik shifo maskanida tarkibida kremniy kislotasi, temir, alyuminiy va boshqa ko‘plab mikroelementlar bo‘lgan buloq suvi asosida jigar, o‘t pufagi yo‘llari kasalliklarini davolashga ixtisoslashgan. Sherobod tumanidagi Xo‘jaikon davolash sog‘lomlashtirish maskani speleoterapiya – nafas olish yo‘llari kasalliklari: zotiljam asoratlari, astma, surunkali bronxitni davolashga ixtisoslashgan bo‘lib, viloyat va respublikamizning turli hududlaridan tashrif buyuruvchilar bilan doimo gavjum.

MUHOKAMA

Kelajakda ekoturizm bo‘ylab ekskursiya qilish, o‘tovlarda yashash, yo‘ltanlamas avtotransport vositalari, kvadrotsikl, ot va tuyalarda qum barxanlari bo‘ylab sayohat, cho‘l hayvonot bog‘i, ekologik bog‘, shuningdek milliy taomlar va salqin ichimliklar tayyorlanadigan tematik kafelar, sahnalashtirilgan shou chiqishlar kabi xizmatlarni yo‘lga qo‘yish orqali ekoturizmga qiziquvchi mahalliy va xorijlik sayyoohlarni yanada ko‘proq jalb etish mumkin. Shu bilan birgalikda ekomarkazning turli joylariga kuzatuv minoralari va kuzatuv maydonchalarini bunyod qilish bilan jonivorlar hayoti bilan yaqindan tanishish imkoniyatlari yaratiladi. Bu tadbirlar va turistlarning ekomarkazga tashrifi shu yerda yashovchi hayvonlarning yashash tarziga halal bermasligi e’tiborga olinishi zarur. Ekomarkazda turistik infratuzilmani shakllantirish evaziga ushbu hudud atrofida istiqomat qiluvchi aholini qo‘srimcha ish o‘rinlari bilan ta’minalashga erishiladi. Unga tutash bo‘lgan aholi manzilgohlarida xizmat ko‘rsatish sohalari, xalq hunarmandchiligi mahsulotlari haridi jonlanadi, gastronomik mahsulotlarga bo‘lgan talab ortadi.

XULOSA

Adabiyotlar tahlilida ekologik markazi misolida olib borilgan o‘rganishlar natijasidan xulosa qilish mumkinki, ekoturizmni rivojlantirishning eng maqbul yo‘li, eng avvalo mahalliy miqyosda turistik imkoniyatlarni o‘rganish, uning ilmiy asoslarini

ishlab chiqish va rivojlantirish istiqbolini belgilashdan iborat; Geografik tadqiqotlar predmetidan kelib chiqib – hududiylik, davriylik, komplekslik prinsiplarini inobatga olgan holda turistik ekskursiyalar, marshrutlar va dasturlarni ishlab chiqishda boshqa turizm turlari bilan bir qatorda Buxoro viloyatida ekoturistik marshrutlarni ham qo'shib olib borish va rivojlantirish maqsadga muvofiqdir; Surxondaryo viloyati o'zining qadimiy tarixiy-madaniy meros obyektlariga boy bo'lgani bois, bu mintaqada tarixiy, arxitektura va ziyorat turizmi yaxshi rivojlangan. Kelajakda ushbu marshrutlar tarkibiga alohida muhofaza etiladigan tabiiy hudud sifatida "Jayron" ekologik markazini ham kiritilishi viloyatga kelgan turistlarda katta qiziqish uyg'otadi; Ekomarkaz hududida hayvonot dunyosining yashash tarziga salbiy ta'sir ko'rsatmagan holda turistik infratuzilmani yaratish orqali mahalliy va xorijlik sayyoohlar oqimini oshirishga erishish mumkin; Maktab o'quvchilarining tabiiy fanlar bo'yicha o'tkaziladigan "Ochiq dars"lari, viloyatdagi Oliy ta'lim muassasalarining labaratoriya va amaliy mashg'ulotlari, dala amaliyoti hamda ilmiy izlanuvchilarining tadqiqot ishlarini ekologik markazida belgilangan tartib-qoidalarga amal qilgan holda tashkil etilishi atrof-muhitni muhofaza qilish, tabiatni asrab-avaylash, vatanni sevish kabi qator o'zining ijobjiy natijalarini beradi deb hisoblaymiz.

REFERENCES

1. Ледовских Е.Ю., Моралева Н.В., Дроздов А.В. Экологический туризм на пути в Россию: принципы, рекомендации, российский и зарубежный опыт. Тула. «Гриф и К». 2002. –с. 248
2. Хамидов О.Х. Ўзбекистонда экологик туризмни ривожлантиришни бошқаришни такомиллаштириш: муаммо ва ечимлар. Монография.-Т.: IQTISODIYOT,2016. 14-б.
3. Commonwealth Department of Tourism (1992), Australian National Ecotourism Strategy, Canberra.
4. Weaver, D.B. (1999), «Magnitude of Ecotourism in Costa Rica and Kenya», Annals of Tourism Research, Vol. 26, No. 4. -pp.792-816.
5. Саттаров Абдисамат Умиркулович, Намозов Джурабек Абдуазизович, Раджабов Фуркат Туракулович. (2021 год). Влияние пастбищного животноводства на сельскохозяйственные угодья Самаркандской области. Annals of the Romanian Society for Cell Biology , 25 (2), 447–451. Получено с <http://annalsofrscb.ro/index.php/journal/article/view/969>
6. Фуркат Туракулович Ражабов, & Азиза Абдуллаевана Олимова (2020). ТАЪЛИМ МУАММОЛАРИ ЕЧИМИДА ИННОВАЦИОН КЛАСТЕРНИНГ Travel & tourism global economic impact & issues 2017, // World travel & tourism council, United Kingdom, 2017. 2

7. Turizmni boshqarish, 20-jild, No 6, 673-682-betlar
8. <https://review.uz/uz/post/surxon-vohasining-turizm-salohiyatiga-bir-nazar>
4. Aberqulov Q.N., Hojimatov A.N., Rajabov N.R. Atrof-muhitni muhofaza qilish. O‘quv qo‘llanma. – T.: TDIU, 2003.
- 9.. Atrof-muhitni muhofaza qilish va tabiatdan foydalanishga oid nomativ-huquqiy hujjatlar to‘plami.-T.: O‘zR Adliya vazirliga, 2007.-660
10. Пардаев М.Қ., Атабаев Р., Пардаев Б.Р. Туризм соҳасини ривожлантириш имкониятлари. Рисола. Т.: ‘Fan va texnoloqiya’, 2007. – 28 б.-2,0 б.т.
11. Пардаев М.Қ., Тухлиев И.С. Туризм бозорининг шаклланиши, ривожланиши ва ўзига хос хусусиятлари. – Т.: “НОШИРЛИК ЁҒДУСИ” нашриёти, 2010.- 74 б.-4,6 б.т.